



TELESKOPIYA – HOZIRGI FRANSUZ TILIDA SO’Z YASASHNING AKTIV USULLARI

Safarova Umida Aliaskarovna,
SamDCHTI katta ilmiy xodim - izlanuvchisi

Tayanch so’zlar: teleskopiya, kontaminatsiya, etimologiya, analogiya, semantika, stilistika, leksika.

Hozirgi kunda teleskopiya fransuz tili lug’at manbaining boyishida eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Teleskopiyaning asosiy mohiyati va u bilan bog’liq muammolarning hali oxirigacha to’liq yechilmaganligini turli tilshunos olimlarning bu boradagi fikrlarida mavjud bo’lgan o’zaro zidliklarda ham kuzatsa bo’ladi.

Turli mualliflarlarning leksik birliklar kontominatsiyasi yo’li bilan hosil qilingan so’z va iboralarni o’rganish borasida olib borgan tadqiqotlari natijasi shundan dalolat beradiki, teleskopiya so’z yasashning eng qadimiylaridan va ammo hali juda kam o’rganilgan muammolardan biri ekan. Ayniqsa bu muammoni tadqiq qilishga fransuz tili lингвистикасида juda kam e’tibor berilgan.

Lингвистикадабиётиларда teleskopiya xalq etimologiyasi yoki analogiyaning ko’rinishi sifatida paydo bo’ladi degan keng tarqalgan fikr mavjud [5]. Bundan tashqari, S.V.Raylyan, A.Ya.Alekseyevlarning ta’kidlashlaricha, ayrim tadqiqotchilarning, masalan V.M.Leychikning ishlarida bu muammoga taalluqli bo’lgan boshqacha fikrlarni uchratish mumkin, bu fikrga ko’ra teleskopiya so’z yasashning mustaqil usulidir [5].

Demak, teleskopiyaning haqiqiy lингвистик табиатини ochish va aniqlash uchun uni til hodisalariga bog’liq holda qiyosiy o’rganish zarur. Shubhasiz, bu hodisalarning lингвистик xarakterdagи ham umumiy tomonlari, ham farq qiluvchi tomonlari mavjud.

Masalan, teleskopiya xalq etimologiyasidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: birinchidan, u yangi so’zlarni hosil qilishning erkin namunasi hisoblanadi,

ikkinchidan, u tilda ilgari o’rnatilgan modellar asosida faoliyat ko’rsatadi, ma’lum maqsadga ega va o’zida ongli jarayonni aks ettiradi.

Xalq etimologiyasi esa, deb ta’kidlaydi J.Vandriyes, bu nutqning xatosi bo’lib, bu xato asosan o’zlashtirgan so’zlarni ishlatish jarayonida yuzaga keladi [5].

Masalan, kelib chiqishiga ko’ra ingliz-golland so’zi bilan “pidjak” so’zi “madaniyati past bo’lgan kishilar nutqida” “spinjak” so’ziga, “poliklinika” va “palisadnik” so’zlari “poluklinika” i “polusadik” so’zlariga, fransuzcha “conredanse, choucroute” so’zlari esa inglizcha “contrydance” va nemis tili shevasidagi “Surkrut” so’zlariga borib taqaladi. A.Dozaning fikriga ko’ra, xalq etimologiyasi “ularning ma’nosi qanchalik darajada bir-biridan farq qilmasin, tuzilishi jihatidan o’xhash so’zlarda ko’r-ko’rona” faoliyat ko’rsatadi [2].

Til taraqqiyotida va ayniqsa so’z yasashda analogiya [6] (bir grammatic formani bir grammatic formaga monand o’zgartirish)ning o’ynagan va hozirgi kunda o’ynayotgan g’oyat katta rolini inkor etib bo’lmaydi. Analogiyaning, yoki modelning ta’siri ostida masalan, “sanglouter” so’zi “sangloter” [3] shaklini oldi, “voyouser” so’zi “jalouser” so’zi ta’sirida yuzaga keldi. Analogiya asosida hosil qilingan birliklarni suffikslar, to’g’rirog’i interfikslar yordamida hosil qilingan so’zlar misolida davom ettirishimiz mumkin, masalan: “bleu-s-aillé” so’zi “grisaille” so’zidan keyin hosil qilindi, shundan “bleuir” so’zi o’rniga “bleu-s-ir” hosil bo’ldi. Shunday qilib, guesard – ниший, bezdelnik – gadoy, faqir, qashshoq, kambag’al, tanbal, ishyoqmas so’zi ta’sirida tilda “banlieusard” – жител пригорода – shahar atrofida yashovchi, “bondieusard” –



ханжка – riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi kabi so’zlar paydo bo’ldi [7].

G.Paulning nuqtai nazariga ko’ra kontominatsiya – “bu fikr ifodasining ikkita sinonimik yoki bir-biriga o’xshash shakllari ongda yonma-yon paydo bo’ladigan hodisa” bo’lib, ularning birortasi mustaqil ravishda amalga oshirilmaydi, buning o’rniga bir shaklning elementlari ikkinchi shakl elementlari bilan qorishib ketgan yangi forma yuzaga keladi [4].

Ko’pgina olimlarning ta’kidlashlaricha, teleskopiya, o’ylab, ataylab amalga oshiriladi. Oldindan o’ylab o’xshash ikki so’z yoki ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi fe’l = yangi fe’l;

K.Sunden va boshqa tilshunoslarning fikriga ko’ra, teleskopik so’zlar faqat ataylab hosil qilinadi, bu jo’rttagarlik ularni analogiya or qali paydo bo’ladigan so’zlardan ajratib turadi.

Ye.M.Chaadayevskaya bu nuqtai nazarni rad etish tarafdiridir. Uning hisoblashicha, teleskopiya usuli so’zlarni ataylab yasash jarayonining natijasi emas. Kontaminatsiya o’z-o’zidan namoyon bo’ladi deya ta’kidlovchi Yu.Yu.Dresheriyevadan farqli o’laroq, u bu borada o’ta qat’iy fikrda emas. “Agar bu so’zlarni ataylab hosil qilingan deb aytish mumkin bo’lsa, deya izohlaydi Ye.M.Chaadayevskaya, - faqat bu shu ma’nodaki, har bir teleskopik so’zni yasovchi kishi tilda mavjud bo’lgan so’z yasashning ob’yektiv qonuniyatlarini ongli ravishda qo’llaydi” [1].

So’z yasovchilik funksiyasi teleskopiyaning eng muhim harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblanib, bu omil uni so’zlarni hosil qilish tizimida alohida usul sifatida qaralishini ta’minlaydi.

S.V.Raylyan teleskopiya yordamida so’z yasashning 8 ta strukturaviy tipini va 9 ta modelini alohida ajratib ko’rsatadi [5]. Eng avvalo teleskopik qurilishning tiplarini ko’rib chiqamiz. Bular quyidagilardan iborat:

1. N + V1 -> V2 (*argonaute + argotiser -> argonautiser*);

Ot + fe’l = boshqa fe’l (argonavt (molyuska) + argolashtirmoq = yangi fe’l);

2. V1 + V2 -> V3 (*s’enivrer + boissonner -> s’emboissonner*);

Fe’l + fe’l = yangi fe’l (mast bo’lmoq + ichimlik ichmoq = yangi fe’l);

3. V1 + N -> V2 (*emberlificoter + perle -> emperlificoter*);

Fe’l + ot = yangi fe’l (adashtirmoq + dur = yangi fe’l);

4. Adj + V1 -> V2 (*lent + lanterner -> lantiponner*) [4];

Sifat + fe’l = yangi fe’l (sekin + bekor yurmoq, yulduz sanamoq, it sug’ormoq = quruq mahmadanachilik qilmoq, safsata sotmoq, quruq gap bilan vaqt o’tqazmoq, valdiramoq) [6];

5. Adj + N -> V (*begueule + gueulard -> begueularder*);

Sifat + ot + yangi fe’l (hazil ko’tarmaydigan odam, nozikoyim, jizzaki; riyokor, munofiq, ikkiyuzlamachi; yuvvosh, muloyim, mo’min + baqiroq, shavaqi, shang’i, ochko’z + yangi fe’l);

6. V1 + N + V2 -> V3 (*tourner + tourlourou + moutonner -> tourloutonner*);

Fe’l + ot + fe’l = yangi fe’l (aylantirmoq + soldatcha = yangi fe’l);

7. Npr. + Adj -> V (*Ingres + gris -> Ingriser*);

Atoqli ot + sifat = yangi fe’l (*Ingre* [3] + kul rang = yangi fe’l);

8. N + N -> (*coq-à l’âne + âme -> coq-à l’âmer*).

Ot + ot = yangi fe’l (be’mani gap, safsata, bo’lmag’ur gap, behuda gap + qalb, ko’ngil, yurak = yangi fe’l).

Bu turlarning har biri teleskopik fe’lning tuzilishini ifoda qiladi, hosil qilingan yangi fe’lning tarkibiga xuddi qoshma so’slarda bo’lgani kabi turli so’z turkumlari kiradi. Ammo murakkab so’zlardan farqli o’laroq, kontominatsiya (o’xshash ikki so’z yoki ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi so’z yoki iboraning paydo bo’lishi) yo’li bilan yasalgan fe’llar oddiy qo’shish natijasi emas. Bu fe’llarda har bir component alohida mustaqil so’z sifatida idrok qilinishi mumkin va har bir component strukturaviy va



semantic munosabatlarning murakkab chatishib ketishi natijasida yuzaga keladi.

Teleskopiyaning semantic-stilistik vazifasi til kommunikatsiya planida til sohiblari uchun eng muhim o'rnlardan birini egallaydi. Bundan tashqari, aytish mumkinki so'z yasash jarayoniga o'zining doimiy ta'sirini o'tkazuvchi uning yetakchi vazifasi hamdir. Agar so'z yasovchilikning vazifasi tilning lug'at boyligini yangilash va uni boyitish maqsadida yangi leksik birliklarni yaratishdan iborat bo'lsa, teleskopiyaning semantic-stilistik vazifasi so'z yasash jarayonida ustqurma funksiyasi bo'lib, u o'xshash ikki so'z yoki ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi so'z yoki iboraning paydo bo'lishini rag'batlantiradi va mazmunning sifat tarkibini ikki jihatdan – semantic va stilistik tomondan "kuzatib" turadi. Aynan leksik-semantik yangilik va bu so'zlarning stilistik ahamiyati teleskopiyaning harakatlantiruvchi kuchidir.

Buni ham shakli, ham ma'nosi jihatidan yangi hisoblangan quyidagi fe'lllar isbot qilishi mumkin. Ular o'zlarining semantik-stilistik "yangiligi" bilan "stilistik neologizmlar" sifatida qarashi mumkin. Bir necha misollar keltiramiz: **blairnifler**: **blairer** [3] – разг. nyuxat, chuyat (iskamoq, sezmoq, his qilmoq) + **renifler** – разг. nyuxat, chuyat (iskamoq, sezmoq, his qilmoq) XIX asr = **blair(er+re)nifler** – "pronyuxat" (daragini eshitmoq, bilmoq, bilib olmoq ma'nosifa); **frôcher**: **frôler** – задеват (tegib o'tmoq, turtib o'tmoq), slegka kasatsya (yengilgina tegmoq, til tegizmoq) (+ **toucher** – трогат (tegmoq, qo'l urmoq, urintirmoq), dotragivatsya (qo'l tegizmoq, qo'l urmoq, tegmoq) касация (tegmoq, qo'l urmoq, til tegizmoq) = **frô(ler + tou)cher** – затрагиват, слегка касаяс kasayas (yengilgina tegib o'tmoq, til tegizmoq, dahl qilmoq) [6].

Shunday qilib, teleskopiya faqatgina so'z yasashning qiziqarli usuligina emas, balki eng samarali stilistik usullardan biri bo'lib, til sohiblari tomonidan og'zaki nutqda

hamda yozuvchilar tomonidan badiiy adabiyotlarda alohida ajralib turuvchi semantik-konnotativ ma'noni aks ettiruvchi turli-tuman ekspressiv so'zlarni hosil qilishda juda keng qo'llaniladi.

M.Dyubuaning ta'kidlashicha, - deydi S.V.Raylyan, - lingvistik teleskopiya yumoristik usul bo'lib, unga til sohiblari "obrazli, ifodali, ta'sirchan" so'zlarni hosil qilish uchun murojaat qiladilar [5].

Teleskopiya yo'li bilan yasalgan hosilalarning leksik-semantik ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, ta'kidlash o'rinniki, u yoki, birinchi yoki ikkinchi komponentning dastlabki ma'nosiga bog'liqdir.

Qoidaga binoan, komponentlardan birining ustunlik qiluvchi ma'nolaridan biri shunhasiz boshqa komponentlarning ma'nosi hisobiga va shuningdek, qo'shilayotgan suffiksning (agar shunday suffiks mavjud bo'lsa) ma'nosi hisobiga kuchayadi. Ko'pincha bu ma'nolar biri ikkinchisining ustiga shu tariqa qatlamlanib, qo'shilib ketadiki, ba'zan ularning qay biri eng muhim ekanligini farqlash qiyin bo'lib qoladi. Ma'nolarning bunday o'zaro hamkorligi natijasida butunlay yangi bir stilistik belgilangan ma'no yuzaga keladiki, u o'zida qolgan barcha ma'nolarni aks ettirgan bo'ladi. Bundan **électérotiser** (**électriser + érotisme**), **bavricaner** (**baver + ricaner**), **argonautiser** (**argonaute + argotiser**) kabi fe'llli neologizmlar aniq dalolat bera oladi.

Semantik-stilistik tahlil nuqtai nazaridan teleskopik yo'l bilan yasalgan **barbachu** (**barbe + moustachu**) oti ancha qiziqish uyg'otadi.

Masalan: *Le remplaçant était trouvé, un grand garçon, ni beau, ni laid, barbachu et maigre* (I.K.Huysman) [7].

Teleskopiyaning mahsuldarligi haqida gapirib o'tmaslikning iloji yo'q, chunki yuqorida keltirilgan teleskopik so'z yasashning turlari va modellari til taraqqiyotining aniq bir davrida bu usulning yangi so'zlarni yasash qobiliyatidan, uning faolligidan dalolat berib turibdi.



Adabiyotlar:

1. Чадаевская Е.И. Система сложных слов в современном английском языке: авторев: ... канд. филол. наук. – Тбилиси, 1952. – 16 с.
2. Dauzat A. La langue française d'aujourd'hui. – P., 1937, p. 186.
3. Ганшина К.А. Французско-русский словарь:. М.: Русский язык, 1982, 487, 766, 99 с.
4. Ingres (Jean Auguste), peintre français. Le Petit Larousse. Dictionnaire encyclopédique en couleurs. Paris, Larousse, 1993, p. 1413.
5. Райлян С.В., Алексеев А.Я. Некоторые проблемы стилистического словообразования. Кишинев. 1980. – с.с. 63, 38, 213, 172, 183.
6. Ruscha-o'zbekcha lug'at. T., 1984, 32, 284,350 –b.b..
7. contextus@mail.ru.

Сафарова У. Телескопия как метод формирования новых слов французского языка. В статье автор рассматривает основные телескопические особенности и проводит анализ структурных моделей французских телескопных новообразований. Телескопия рассматривается как продуктивный способ компрессивного словообразования, не только пополняющий словарный состав современного французского языка, но и формирующий новые словообразовательные элементы.

Safarova U. Telescoping as a method of forming of new words in French. In the article the author investigates the main telescopic qualities and structural models of the French telescopic neologisms. Telescoping is considered as a productive way of compressive word formation which not only enlarges the vocabulary but also forms some new word-formative elements.
